



CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA SALBIY JIHATLARI.

Shokirova Marhabo¹, Ne'matjonova Munavvarxon Hamidullayevna²,

¹ Farg'ona davlat universitet ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

² Farg'ona davlat universitet ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Abstarct

Chet tillarini o'qitishda onlayn ta'limning xoriydagi yutuq va muammolarini tatbiq etish, ularni ilmiy va nazariy izohlab berish masalalari ko'plab metodistlarning e'tiborini tortib keladi. Avvalo, chet tilini o'qitish metodikasida onlayn ta'limni ol'ga surish mezonlari haqida fikr yuritiladi.

Keyword: Zoom, onlayn ta'lim konferensiya, video eshittirish.

INTRODUCTION

Hozirgi kunda turli sohalarni o'qitishda onlayn platformadan keng foydalanilmoqda. Onlayn ta'lim nima? Onlayn ta'lim masofadan turib axborotni almashinuvchi (ya'ni jo'natuvchi va qabul qiluvchi) vositalar orqali o'qitishdir. Onlayn ta'limdan foydalanish 2019-yildagi pandemiya davridan keng tarqaldi va qo'llana boshlandi. Chunki o'sha payt odamlar og'ir ahvol tufayli uyda o'tirishga majbur bo'ldilar. Bu vaziyat dunyodagi barcha oliygohlar, maktablar va litsey o'quvchilarning barchasi onlayn ta'limga o'tishga majbur bo'lishdi. Bizning mamlakatimizda ham onlayn ta'lim tizimiga o'tildi. Pandemiya paytigacha ham boshqa rivojlangan davlatlarda onlayn ta'limdan foydalanilar edi. Bu onlayn ta'lim dunyo davlatlari orasida anchagina ommalashdi. Chunki onlayn ta'limning o'ziga yarasha foyda va zararli tomonlari bor. Ko'plab chet el mamlakatlarida, rivojlangan va tanilgan oliygoh va maktablarda onlayn ta'limning foydali tomonlari organib chiqilgan. Masalan: Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yevropa va Xitoy kabi shaharlardir. Bu onlayn ta'lim ko'plab tillarni o'rganishga, fikrlarni tez almashishga hamda vaqtni tejashga yordam beradi. Ispaniya, talaba yoshlarni ko'plab texnik mutaxassislar bilan ta'minlaydi hamda joylashgan masofasidan qat'iy nazar fikr mulohazalarga boy. Ispaniya universitetining asosiy ta'labi o'qitish va o'rgatish jarayonida dasturiy ta'limdan foydalanishga qo'yilgan. Yoshlarni axborot bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda. Oxirgi paytlarda o'quv dasturlariga ingliz tili va rus tili kurslari kiritildi. Ta'limda axborot texnologiyalari amaliy qo'llash orqali amalga oshiriladi va bundan tashqari zum davomida o'quvchilarga turli videoroliklar, slaydlar va turli videoeshittirishlar yuboriladi. Elektron ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Yevropaning eng kuchli va yetakchi davlatlaridan biri Finlyandiyadir. Finlyandiya murojaat qiluvchilarga nimani maslahat beradi? Mutaxassislarning maruzalari, eshittirishlar hamda videoroliklarini. O'quv dasturlarini ishlab chiqish videokonferensiyalar orqali o'quvchilarni kuzatish hamda baholash.

Xorijiy tillarni o'rganishda onlayn ta'lim juda katta foyda bermoqda. Birinchidan o'quvchilar o'rganayotgan tilining mutaxassisi bilan onlayn suhbatlashadi, uning onlayn kurslarini kuzatadi, talaffuziga e'tibor beradi va o'zining nutqi bilan taqqoslaydi. Ikkinchidan an'anaviy ta'limda bir qancha muammolar kelib chiqadi. Masalan talaba qamrovi hamda maruzalar uchun xonaning yetishmovchiligi. Onlayn ta'lim esa talabalarning kopini qamrab oladi. Uchinchidan talaba bir vaqtning o'zida bir nechta universitetda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari onlayn

ta'limning salbiy jihatlari ham bor. Birinchidan, an'anaviy ta'limda vaqtga qarab maruzani tezlashtirish mumkin lekin onlayn ta'limda buning ilojisi yoq. Ikkinchidan, onlayn ta'limda talabalar bilan tog'ridan tog'ri aloqa bolmaydi. Uchinchidan, jamoa bolib ishlashga imkoniyat yoq. Yevropa va AQSH universitetlariga kirishda uning organayotgan tilini bilish darajasi so'raladi hamda o'quvchining o'z sohasiga oid yutuqlari talab qilinadi. AQSH ning ko'plab universitetlarida onlayn ta'lim olishning narxi ham qimmatdir. Bu universitetlardagi onlayn ta'limga to'lanadigan pulga Kanada va Yangi Zelandiyada kunduzgi ta'limda o'qishga yetadi. Yana bir muammolaridan biri shuki onlayn ta'limda o'quvchilarning dars qilishi uchun kam vaqt beriladi va vaqtlari bexuda sarflashlari, o'zlarining ustida ishlashlari nazorat qilinmaydi, o'zlashtirishi pasayadi va joriy imtixonlardan o'tolmay, kerakli ballni yigolmay, kursdan yiqilishlari, universitetdan chetlashtirilishlari yoki past bilimga ega bo'lgan holda bitirishlari mumkin. Buning dalili sifatida Buyuk Britaniyada 2020-yil o'tkazilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilarning 2-2.5 vaqtlarini dars qilishga sarflashgan, qolgan vaqtlarini esa turli ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishgan. Yana biri shuki nogironligi bor talabalar uchun masofaviy ta'lim juda qiyin hisoblanadi. Bunday imkoniyati cheklangan talabalar uchun an'anaviy ta'lim keng va erkin muloqotni ochib beradi. Nogironligi bor talabalar uchun ta'lim olish bazasi qimmatdir. Barcha sohalarda ham onlayn ta'limni olga surib bolmaydi. Misol uchun tibbiyot, laboratoriya yoki amaliyot kurslari olib boriladigan fan va sohalarda. Bugungi kunda eng dolzarbi shuki onlayn ta'limda dunyoning turli xil joylaridagi talabalar ishtirok etganligi sababli internetning tezligi yaxshi emas. Bu esa talabalarning darslarni to'liq tushunib olmasligiga hamda o'zini qiziqtirgan savollarga javob ololmasligiga sabab bo'ladi. Chet tillarni o'rganishda ko'pincha shu tilni o'rganayotgan sheriklari bilan baxs mulohazalar o'tkazishi, ular bilan erkin suhbatlashishiga e'tibor beradigan bolsak, onlayn ta'limdagi suhbatlarga qo'shilib ketolmaydi, fikrini erkin va keng talqin qilolmaydi va kuzatolmaydi. An'anaviy ta'lim esa talabadagi qo'rquv, tortinish va his hayajonni yo'qotishga yordam beradi. Talabada keng jamoat oldida, katta katta konferensiyalarda erkin va ravon nutq so'zlashiga yo'l ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, onlayn ta'limning bir qancha yutuq va muammolarini kuzatdik. Shu kamchiliklarini inobatga olib onlayn ta'limning foydali jihatlardan unumli foydalanib, keng miqyosda targ'ib qilishimiz kerak. Xorijdagi chet tillarini onlayn ta'limda o'rganish va o'rgatish metodikalarini mamlakatimizda ham joriy qilishimiz kerak. Mening fikrimcha tartib, intizom va maqsad bor joyda har qanday ta'lim ham foydasini beradi. Buning isboti sifatida turli mamlakatlarda onlayn ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar isbotidir. Har bir mamlakatning ta'lim sohasiga beradigan yangiligi bo'ladi. Bizning davlatda ham onlayn tizimi yangilik sifatida kiritilmoqda. Har qanday ta'limda ham rivojlanishga erishish mumkinligi bir necha bor isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-onlayn-ta-limning-yutuq-va-muammolari>,
2. "Ta'limda tillarni o'qitish: muammo va yechimlar" <https://akadmvd.uz/oz/news/talimda-tillarni-oqitish-muammo-va-yechimlar>,
3. "CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING YUTUQ VA MUAMMOLARI | Journal of new century innovations"
4. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/2367>